

IQTIDORLI O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING INDIVIDUAL-DIFFERENSIAL TA'LIM MODELI

Jabbarova D Z
NamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada iqtidorli o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini shakllantirish jarayonida individual yondashuvning metodik asoslari ilmiy-nazariy hamda tajribaviy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda kreativ kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari, rivojlanish mezonlari hamda o'quvchilar ijodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar tizimli ravishda o'rganildi. Shuningdek, individual yondashuvning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, differensial va moslashuvchan ta'lim sifatlari asosida kreativ kompetensiyani rivojlantirishga ta'siri ilmiy asosda bayon etildi.

Kalit so'zlar: iqtidorli o'quvchi, kreativ kompetensiya, individual yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, divergentsial fikrlash, pedagogik texnologiya, innovatsion metodlar, ijodkorlik, diagnostika, ta'lim sifati, eksperimental tadqiqot, kreativ salohiyat, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: В данной научной статье проведен глубокий научно-теоретический и экспериментальный анализ методических основ индивидуального подхода в процессе формирования креативной компетенции одаренных школьников. В исследовании систематически изучалось содержание понятия креативная компетентность, ее составляющие компоненты, критерии развития и психолого-педагогические факторы, влияющие на творческий потенциал учащихся. Научно обосновано также влияние индивидуального подхода на развитие творческой компетентности на основе личностно-ориентированных, дифференцированных и адаптивных образовательных качеств учащегося.

Ключевые слова: одаренный ученик, творческая компетентность, индивидуальный подход, личностно-ориентированное обучение, дивергентное мышление, педагогические технологии, инновационные методы, креативность, диагностика, качество образования, экспериментальные исследования, творческий потенциал, компетентностный подход.

Annotation: In this scientific article, the methodological foundations of an individual approach in the process of forming creative competence of gifted students are analyzed in depth, both scientific-theoretical and experimental. The study systematically studied the content of the concept of creative competence, its structural components, development criteria and psychological and pedagogical factors affecting the creative potential of students. Also, the influence of the individual approach on the development of creative competence on the basis of qualities of a student's personality-oriented, differential and adaptive education was stated on a scientific basis.

Keywords: *gifted student, creative competence, individual approach, personality-oriented education, divergent thinking, pedagogical technology, innovative methods, creativity, diagnostics, educational quality, experimental research, creative potential, competency approach.*

KIRISH

Zamonaviy globallashuv, raqobat, tezkor axborot almashinuvi va raqamli ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish har qachongidan ham muhim masalaga aylandi. Kreativ kompetensiya nafaqat ijodiy fanlar uchun, balki matematika, texnologiya, biologiya, informatika, ijtimoiy fanlar va kundalik hayot uchun ham zarur bo'lgan universal kompetensiya hisoblanadi. UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning so'nggi ta'lim hisobotlarida ham kreativ fikrlash XXI asr ko'nikmalari ichida asosiy ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Iqtidorli o'quvchilar uchun esa kreativ kompetensiyani rivojlantirish ikki baravar ahamiyatlidir. Chunki ularning intellektual salohiyati, noodatiy fikrlashi va mustaqil kognitiv faoliyati ijodkorlik bilan uzviy bog'liq. Agar ta'lim jarayoni individual yondashuv asosida tashkil etilmasa, iqtidorli o'quvchi o'zining ichki salohiyatini to'liq namoyon qila olmaydi, hattoki regressga uchrashi mumkin. Shu bois, iqtidorli o'quvchilarni o'qitishda "hamma uchun bir xil" tamoyiliga asoslangan an'anaviy yondashuvlar o'z samarasini bermayapti.

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar — davlat ta'lim standartlarining takomillashuvi, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha ixtisoslashgan maktablar sonining oshishi — kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ammo bu jarayonda individual yondashuvning metodik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash, aniq modellar ishlab chiqish, tajriba-sinov asosida samaradorligini tekshirish zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtidorli o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi jahon pedagogikasida keng o'rganilgan bo'lsada, individual yondashuv doirasida kreativ kompetensiyani tizimli rivojlantirish mexanizmlari hamon dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Mazkur masalaning o'rganilganlik darajasini bir nechta ilmiy maktablar, psixologik yo'nalishlar va zamonaviy pedagogik konsepsiyalar kesimida ko'rib chiqish lozim. Kreativlikning psixologik mexanizmlari birinchi navbatda J. Guilfordning "divergent tafakkur" nazariyasi bilan bog'liq.

U kreativ tafakkurni originallik, moslashuvchanlik, oqimlilik va aniqlik kabi parametrlar asosida tahlil qilib, kreativ fikrlashning kognitiv asoslarini belgilab berdi. E. Torrance esa "Torrance Creative Thinking Test (TTCT)" testlarini ishlab chiqib, kreativlikni o'lchashning eng mashhur tizimlaridan birini yaratdi. Ushbu xalqaro testlar ko'plab mamlakatlarda iqtidorli o'quvchilar kreativ salohiyatini aniqlashda asosiy diagnostik vosita sifatida qo'llanadi.

H. Gardnerning "Ko'p qirrali intellekt nazariyasi"da ijodkorlik shaxsning intellektual tuzilmasi ichida alohida qobiliyat turiga aylangan bo'lib, bu nazariya kreativ salohiyatning

individual tabiati haqida chuqur ilmiy tasavvur beradi. R. Sternbergning “Triarxik intellekt nazariyasi” ham kreativlikni shaxsning moslashuvchan qaror qabul qilish, yangi vaziyatlarga kreativ javob berish tarzida izohlaydi. Ushbu ilmiy maktablar kreativlikni psixologik jihatdan chuqur yoritgan bo’lsa-da, ularning ta’lim jarayoniga tatbiqi, ayniqsa individual yondashuv kontekstida, hali ham yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Iqtidorli o’quvchilar masalasi G. Renzulli, J. Freeman, L. Feldxusen singari olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Renzullining “Uch halqali model”i iqtidorlilikni intellektual qobiliyat, ijodkorlik va vazifaga sodiqlik komponentlari asosida izohlaydi.

Mazkur model kreativ salohiyatni iqtidorning ajralmas qismi sifatida talqin qilgani bilan diqqatga sazovordir. Bu ilmiy izlanishlar iqtidorli o’quvchilar rivojlanishining psixologik omillarini atroflicha ochib bergan bo’lsada, ta’lim jarayonida individual yondashuvning amaliy mexanizmlarini yetarli darajada ishlab chiqmagan.

So’nggi yillarda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, individuallashtirilgan o’quv trajektoriyalari, differensial o’qitish kabi konsepsiyalar ta’lim tizimida yetakchi yo’nalishlardan biriga aylandi. Xususan:

C. Tomlinson differensial ta’limning nazariy asoslarini ishlab chiqdi;

M. Fullan o’quvchilarning individual rivojlanishiga ta’sir etuvchi o’quv muhiti omillarini tahlil qildi;

OECD (PISA) tadqiqotlari kreativ kompetensiyaning milliy ta’lim tizimlari rivojiga ta’sirini o’rgandi.

Shunga qaramay, jahon ilmida iqtidorli o’quvchilarni aynan kreativ kompetensiya doirasida, individual yondashuv asosida rivojlantirishga bag’ishlangan integral model kam uchraydi.

Mahalliy ilmiy maktab vakillari (Shodmonqulova, Yo’ldoshev, Raxmonov, Amonov, Azizxo’jayeva) iqtidorli yoshlar bilan ishlash metodikasi, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv, o’qituvchi kompetensiyasi kabi yo’nalishlarda muhim nazariy-amaliy tadqiqotlar olib borgan. Bu tadqiqotlarda:

- ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish tamoyillari,
- motivatsiya va kreativ fikrlashning psixologik mexanizmlari,
- innovatsion ta’lim texnologiyalarining o’quvchi rivojiga ta’siri

kabi masalalar o’rganilgan. Biroq ularning tadqiqotlarida kreativ kompetensiyaning kompleks rivojlantirish, individual yondashuvning texnologik modeli, diagnostika indikatorlari, tajriba-sinov asosida isbotlangan metodika kabi yo’nalishlar yetarli darajada yoritilmagan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki:

1. Kreativlikni o’lchash va rivojlantirish bo’yicha ko’plab nazariyalar mavjud, ammo ular maktab sharoitiga to’liq moslashtirilgan emas.

2. Individual yondashuvning o’quvchi kreativ salohiyatiga ta’sir mexanizmlarini yorituvchi kompleks model yetishmaydi.

3. Iqtidorli o’quvchilarda kreativ kompetensiyaning integrativ tarzda shakllantirish bo’yicha empirik tadqiqotlar kam.

4. Maktab amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan tayyor texnologiya, mezonlar majmuasi va diagnostik vositalar mavjud emas.

Demak, mavjud ilmiy izlanishlarga qaramay, individual yondashuv asosida iqtidorli o'quvchilar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning izchil metodikasini ishlab chiqish – o'z yechimini kutayotgan ilmiy vazifadir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi iqtidorli o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini individual yondashuv asosida rivojlantirish jarayonini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, u kompleks pedagogik, psixologik va innovatsion yondashuvlar sinteziga tayanadi.

Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv rivojlanish nazariyalari hamda iqtidorlilik psixologiyasi bo'yicha ilg'or ilmiy qarashlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ayniqsa V.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi", J.Gilfordning divergent fikrlash nazariyasi, R.Sternbergning triarkik intellekt modeli va H.Gardnerning ko'p qirrali intellekt konsepsiyalari tadqiqotning nazariy tayanchini mustahkamladi. Ushbu nazariyalar kreativ fikrlashni o'quvchi shaxs rivojining asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin etadi va o'quvchining individual salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental model asosida qurildi, chunki real ta'lim muhitida guruhlarni to'liq tasodifiy tanlash imkoni mavjud emas edi. Shu sababli, tajriba va nazorat guruhlari maksimal tenglashtirilgan sharoitda shakllantirildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: boshlang'ich diagnostika (pre-test), pedagogik ta'sir bosqichi va yakuniy diagnostika (post-test). Ushbu ketma-ketlik individual yondashuv asosidagi ta'limning o'quvchilar kreativ kompetensiyasiga real ta'sirini aniqlashga imkon berdi. Eksperiment real maktab sharoitida, tabiiy ta'lim jarayonida olib borilgani metodikaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Farg'ona vodiysidagi 7 ta umumta'lim maktabining 6–7-sinfda tahsil olayotgan 432 nafar o'quvchisi tanlab olindi. Ishtirokchilar iqtidorlilik alomatlari, ijodiy faoliyatga qiziqish darajasi, akademik ko'rsatkichlari va psixologik barqarorlik mezonlari asosida saralandi. Ulardan 216 nafari tajriba, 216 nafari nazorat guruhiga biriktirildi. Guruhlarning yosh, jins, o'quv ko'rsatkichlari jihatidan tenglashtirilgan bo'lishi statistik natijalar aniqligi uchun muhim omil bo'ldi.

Tadqiqot davomida o'quvchilar kreativ kompetensiyasi to'rt asosiy komponent – kognitiv, motivatsion, ijodiy faoliyat va kommunikativ ko'nikmalar asosida baholandi. Har bir indikatori aniqlash uchun xalqaro miqyosda qo'llaniladigan testlar va adaptatsiya qilingan diagnostika vositalari ishlatildi. Masalan, kognitiv kreativlikni baholashda Torrance testlari asosidagi topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish, metaforik fikrlash, assotsiativ tafakkurni aniqlovchi mashqlar qo'llandi.

Motivatsion komponentni baholashda Likert shkalasi asosidagi ijodiy motivatsiya so'rovnomalari va o'quvchilarning ijodiy faoliyatga jalb etilish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ijodiy faoliyat komponenti mini-loyihalar, grafik-visual ishlar, kichik tadqiqot topshiriqlari orqali o'lchandi.

Kommunikativ komponent esa guruhda ishlash, ixtiro qilish jarayonida fikr bildirish, yangi g'oyalar taklif qilish, taqdimot ko'nikmalarining shakllanishi orqali aniqlashtirildi.

Tajriba guruhi bilan ishlash jarayonida individual yondashuvga asoslangan maxsus pedagogik texnologiya ishlab chiqildi va joriy etildi. Texnologiya individual o'quv trajektoriyalarini tuzish, kreativga asoslangan mashg'ulotlar, loyiha metodidan foydalanish, STEAM integratsiyasi va interaktiv metodlar majmuiga tayandi. Har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish xaritasi tuzilib, uning ijodiy salohiyati, qiziqishlari va o'zlashtirish darajasidan kelib chiqib individual topshiriqlar belgilandi. Dars jarayonida "Aqliy hujum", "Kreativ debat", "Klaster", "Rol o'ynash", "Sinkveyn", "Yangi mahsulot yaratish", "Muammoga noodatiy yechim topish" kabi metodlar muntazam qo'llandi. Loyiha ishlari esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qarorlar qabul qilishini faollashtirdi. STEAM yondashuvi doirasida texnologiya, matematika, san'at va tabiiy fanlarga oid bilimlar sintez qilinib, kreativ g'oyalar platformasi yaratildi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida o'quvchilarning kreativ kompetensiyasi darajasi kompleks diagnostika natijalari asosida aniqlanib, tajriba va nazorat guruhlarida sezilarli farqlar mavjud emasligi kuzatildi. Bu esa eksperimental ta'sir samaradorligini baholash uchun muhim boshlang'ich shart-sharoitlar yaratdi. Umuman olganda, o'quvchilarning taxminan yarmida kreativlikning o'rta darajasi, bir qismida past daraja va kam sonli o'quvchilarda yuqori daraja qayd etildi. Boshlang'ich natijalar kreativ kompetensiyaning to'rt indikator—kognitiv, motivatsion, ijodiy faoliyat va kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha turlicha rivojlanish sur'atlariga ega ekanini ko'rsatdi.

Tajriba bosqichi yakunlangach, o'quvchilarning kreativ kompetensiyasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, tajriba guruhida kognitiv kreativlik ko'rsatkichlari keskin oshgani, o'quvchilarning noodatiy yechim topish, g'oya oqimlilik va moslashuvchan fikrlash darajasida sifatli o'sish yuzaga kelgani aniqlandi. Motivatsion indikatorlar ham sezilarli darajada o'zgardi: ijodiy faoliyatga qiziqish ortdi, mustaqil izlanishlar soni ko'paydi, kreativ topshiriqlarni bajarishga bo'lgan ichki ehtiyoj kuchaydi.

Ijodiy faoliyat komponenti bo'yicha o'quvchilarning loyiha ishlari, grafik kompozitsiyalar, muammoga yechim topish bo'yicha ishlab chiqqan g'oyalari son jihatidan ham, sifat jihatidan ham oldingi davrga nisbatan yuqori darajani namoyish etdi. Kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha esa o'quvchilarning guruhli ishda faol ishtiroki, liderlik elementlari, g'oyalarni asoslash va taqdim etish madaniyati sezilarli darajada rivojlangani qayd etildi.

Yakuniy diagnostika natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilarining umumiy kreativ kompetensiya darajasi o'rtacha 38–42% ga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 8–11% atrofida bo'ldi. Bu esa individual yondashuv asosidagi pedagogik texnologiyaning real ta'lim muhitida yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Tajriba guruhidagi o'quvchilarning aksariyati past darajadan o'rta darajaga, o'rta darajadan yuqori darajaga ko'tarildi. Natijalarning bunday sifat o'zgarishi nafaqat o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasiga, balki kreativ tafakkur jarayonining ichki omillariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatdi.

Shuningdek, variantlik, originallik va tafakkur moslashuvchanligi bo'yicha ham sezilarli o'sish qayd etildi. O'quvchilarning yangi g'oyalar taklif qilish qobiliyati, o'z fikrini mustaqil asoslash ko'nikmalari ham rivojlanib borgan. Jadval va grafik tahlillar shuni ko'rsatdiki, aynan individual yondashuv asosida tuzilgan o'quv trajektoriyalari, loyihaviy ishlash metodlari va STEAM integratsiyasi eng yuqori samara bergan komponentlar sirasiga kiradi.

Natijalar tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasida statistik ahamiyatli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu farqlar eksperimental metodikaning o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini shakllantirishdagi samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlab beradi. Yakuniy xulosaga ko'ra, individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ijodiy fikrlar ishlab chiqish imkoniyatlarini oshiradi va ularni innovatsion faoliyatga kengroq jalb qiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari individual yondashuv asosida iqtidorli o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish mumkinligini ilmiy-amaliy jihatdan tasdiqladi. O'tkazilgan eksperimental ishlar, diagnostik tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kreativlikni rivojlantirish jarayoni shaxsning individual salohiyati, qiziqishlari va o'quv faoliyatidagi faolligi bilan bevosita bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv o'quvchini tayyor bilimi bilan emas, balki uning ichki imkoniyatlari va o'z g'oyalarini amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan faol, ijodkor subyekt sifatida ko'radi.

Tadqiqot tajriba-sinov ishlarida aniqlanganidek, individuallashtirilgan topshiriqlar, ijodiy laboratoriyalar, loyiha asosidagi ta'lim, STEAM integratsiyasi, muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan metodlar o'quvchilarning kognitiv rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu jarayonda o'quvchilarning g'oya yaratish tezligi, moslashuvchanligi, variantlilik darajasi, o'z fikrini asoslash ko'nikmalari sezilarli darajada oshdi. Bu esa kreativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan kognitiv, motivatsion, ijodiy va kommunikativ komponentlarning uyg'un shakllanishi uchun asos yaratdi.

O'quvchilar faoliyatida kuzatilgan ijobiy natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ kompetensiya tasodifiy shakllanmaydi; aksincha, to'g'ri tanlangan metodlar, rejalashtirilgan izchil ta'lim jarayoni va individual rivojlanish trayektoriyalarining mavjudligi uning shakllanishi uchun zarur sharoit yaratadi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchida nafaqat ijodiy fikrlash, balki o'z-o'zini baholash, mustaqil qaror qabul qilish, g'oyalarni asoslash, innovatsion fikrlash kabi ko'nikmalar ham shakllanadi. Bu esa kreativ kompetensiyaning chuqur va keng mazmundagi rivoji uchun muhim ijtimoiy-psixologik baza hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy-xulosa sifatida qayd etilishi kerak bo'lgan muhim jihatlaridan biri shundaki, o'quvchilar ijodiy faoliyatining rivojlanishi o'qituvchi faoliyatiga ham yangi talablarni qo'yadi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonining tashkilotchisi, motivatori, ijodiy muhit yaratuvchisi sifatida maydonga chiqadi. Bu esa pedagogda zamonaviy metodlarni qo'llash, ta'lim jarayonini moslashtirish, o'quvchining individual salohiyatini aniqlay olish, uni rag'batlantirish kabi ko'nikmalar mavjud bo'lishini talab qiladi.

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv asosida kreativ kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi nafaqat o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshiradi, balki ularning shaxsiy o'sishiga, zamonaviy kompetensiyalarni o'zlashtirishiga ham katta hissa qo'shadi. Shuning uchun mazkur texnologiyani ta'lim amaliyotiga joriy etish ta'lim sifatini oshirish, innovatsion fikrlovchi avlodni shakllantirishda muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish mumkin:

1. Maktablarda har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish xaritalarini tuzish, ularning qiziqishlari va salohiyatiga mos topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
2. Faoliyatga asoslangan, kreativ loyihalarni o'z ichiga olgan, fanlararo STEAM integratsiyasiga tayangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.
3. Pedagoglar uchun treninglar, seminarlar, metodik qo'llanmalar va amaliy darslar tashkil etish ijodiy yondashuvni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish imkonini beradi.
4. Kreativ laboratoriyalar, ijodiy klub va to'garaklar, loyiha studiyalari tashkil etilishi o'quvchilarning ijodiy faolligini qo'llab-quvvatlaydi.
5. Kreativlikni baholashning ilmiy asoslangan diagnostika vositalarini muntazam ravishda tatbiq etib borish, natijalar asosida o'quvchi rivojlanishini monitoring qilish zarur.
6. O'quvchilarga amaliy loyihalar yaratish, ularni himoya qilish va baholashga imkon beruvchi ta'lim modeli joriy etilishi lozim.
7. Ota-onalar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha metodik tavsiyalar va maslahatlar bilan muntazam ta'minlanishi kerak.
8. Onlayn kreativ platformalar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari o'quvchilarning kreativ o'sishini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Azizxo'jayeva, N. N. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi.
2. Yo'ldoshev, J. G., & Hasanboeva, O. M. (2015). Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. OECD. (2019). OECD learning compass 2030: A series of concept notes. OECD Publishing.
4. UNESCO. (2015). Rethinking education: Towards a global common good? UNESCO Publishing.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2020). Umumiy o'rta ta'lim uchun kompetensiyaviy davlat talablari. Toshkent.